



**TOSHKENT DAVLAT AGRAR UNIVERSITETI REKTORINING
BUYRUG'I**

2021-yil "05" *Mayabr* № *1-9-61505*

Qibray tumani

Oliy va o'rta maxsus ta'lim
vazirining 2021-yil 22-oktabrdagi
443-sonli buyrug'i ijrosini
ta'minlash to'g'risida

ISO 37001:2016 "Korrupsiyaga qarshi kurashish menejment tizimlari – foydalanish bo'yicha xalqaro talablar va tavsiyalar" xalqaro standart talablari va tavsiyalarini inobatga olgan holda, universitetda korrupsiyaga qarshi komplayens nazoratni joriy etish maqsadida

BUYURAMAN:

1. Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirining 2021-yil 22-oktabrdagi "Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligida Komplayens nazorat tizimini joriy etish va korrupsiyaga qarshi kurashishni takomillashtirish to'g'risida" 443-son buyrug'i (keyingi o'rinlarda – Buyruq) ma'lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Buyruq bilan quyidagilar:

"O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tizimida maqsadli antikorrupsion tizimni joriy etish bo'yicha Yo'l-xaritasi" 1-ilovaga;

"O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tizimida korrupsiyaga qarshi kurashish prinsiplari va talablariga rioya etilishini monitoring va nazorat qilish uslubiyoti" 2-ilovaga;

"O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tizimi xodimlarining korrupsiya harakatlarini amalga oshirish va odob-axloq qoidalarini buzilishiga nisbatan xizmat tekshiruvlarini o'tkazish reglamenti" 3-ilovaga;

"Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligida korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi muhim samaradorlik ko'rsatkichlari" 4-ilovaga;

"O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tizimi xodimlarini odob-axloq va korrupsiyaga qarshi kurashish borasida o'qitishni tashkil etish bo'yicha uslubiy ko'rsatmalar" 5-ilovaga;

"O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tizimiga ishga qabul qilinayotgan nomzodlarni tekshirish bo'yicha yo'riqnoma" 6-ilovaga;

"O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tizimida ontragentlarni tekshirish bo'yicha yo'riqnoma 7-ilovaga;

"O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligida korrupsiyaga qarshi kurash tizimining holati to'g'risidagi hisobotni shakllantirish va taqdim etish bo'yicha nizom" 8-ilovaga;

“O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligining Komplayens nazorat va korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘limi to‘g‘risidagi nizom” 9-ilovaga muvofiq tasdiqlanganligi inobatga olinsin.


Belgilansinki mazkur buyruq bilan tasdiqlangan hujjatlar universitet, universitetning Samarqand filiali, universitet huzuridagi agrotexnologiyalar texnikumlari, akademik litseylari uchun majburiy hisoblanadi.

3. Barcha bo‘lim boshliqlari, kafedra mudirlar, fakultet dekanlari, Korrupsiyaga qarshi komplayens nazorat tizimini boshqarish bo‘limi boshlig‘i; universitetning Samarqand filiali va universitet huzuridagi agrotexnologiyalar texnikumlari direktorlari hamda korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha mas‘ul shaxslar mazkur buyruq bilan tasdiqlangan hujjatlar asosida o‘z xususiyatlaridan kelib chiqqan holda ichki hujjatlarni ishlab chiqsin hamda ushbu hujjatlarning mazmun-mohiyati haqida xodimlar, professor-o‘qituvchilar hamda talaba-yoshlar o‘rtasida tushuntirish ishlarini olib borsin.

4. Devonxona va arxiv bo‘limi (D. Xibbimova) 1 kun muddatda mazkur buyruqning barcha tarkibiy bo‘limlarga yetkazilishini ta‘minlasin.

5. Ushbu buyruq ijrosini nazorat qilishni o‘z zimmamda qoldiraman.

**O‘quv ishlari bo‘yicha
prorektor**



S. Islamov

S. Islamov